

**MUHOFAZAGA OLINGAN HUDUDLARINI RIVOJLANTIRISH
YO‘LLARI (KO‘HITANG DAVLAT QO‘RIQXONASI MISOLIDA).**

Abdimo‘minov Tog‘oyazar Abdinaxat o‘g‘li

Termiz davlat pedagogika instituti “Geografiya va uni o‘qitish metodikasi”

kafedrasi o‘qituvchisi

Yoqubova Qunduz Faxriddin qizi

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Aliboyev Elmurod Himmatovich

Sherobod tumani 55-sonli umumta’lim maktabining geografiya fani o‘qituvchisi

Annotsiya: Mazkur maqolada Surxondaryo viloyatida joylashgan Ko‘hitang davlat qo‘riqxonasining muhofazaga olingan hududlarini rivojlantirish yo‘llari ko‘rsatilgan.

Tayanch so‘zlar: Qo‘riqxonalar, Ko‘hitang, Payg‘ambarorol, Zarautsoy, O‘zbekiston Qizil kitobi, Buxoro bug‘usi, muhofaza ostiga olingan o‘simliklar, muhofaza ostiga olingan hayvonlar.

**WAYS TO DEVELOP PROTECTED AREAS (EXAMPLE OF KOHITANG
STATE SANCTUARY).**

Annotation: This article shows ways to develop the protected areas of the Kohitang state reserve located in the Surkhandarya region.

Key words: Reserve, Kohitang, Prophet, Zarautsoy, Red Book of Uzbekistan, Bukhara deer, protected plants, protected animals.

Mamlakatimiz turli sohalarda boy tabiatga ega, yil fasllari to‘la ifodalanadigan betakror hududlari sirasiga kirishi ayni haqiqatdir. o‘zbekiston tabiati va tabiiy boyliklarni muhofaza qilish hamda o‘rganishda qo‘riqxonalarining ahamiyati juda katta. Qo‘riqxonalar ma’lum bir hududdagi ekotizimlar va uni tashkil qiluvchi o‘simliklar va hayvonot dunyosini hamda ularning ham irsiy yaxlitligini muhofaza qilish, ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish va yosh avlodni tabiat muhofazasi jonkuyarlari sifatida tarbiyalash ishida faol ishtirok etish

maqsadida tashkil etiladi ana shunday qo'riqxonalaridan biri Surxondaryo viloyatida tashkil qilingan Surxon davlat qo'riqxonasi hisoblanadi [1].

Surxon davlat qo'riqxonasi O'zbekiston Respublikasi Ministrlar Kabinetining 1986 yil 8 sentabrdagi №445 sonli buyrug'iga muvofiq tashkil etilgan. o'sha davrda qo'riqxonaga o'z tarkibiga Amudaryo o'zanida joylashgan Payg'ambaroroli va Ko'hitang bo'limlarini birlashtirgan.

Surxon davlat qo'riqxonasi hududi 10 ta aylanma va 14 kvartallarga ajratilgan bo'lib, umumiy maydoni 23802 gektarni tashkil etadi. Shundan o'rmon bilan qoplangan maydoni 12239,8 gektarni, ya'ni jami hududning 51,4% qismini tashkil qiladi [3].

Surxon davlat qo'riqxonasi Surxondaryo viloyati, Sherobod tumanining shimoliy g'arbiy qismida joylashgan 2 mustaqil maydondan Ko'hitang tog'ining Sharqiy yonbag'ri va Payg'ambaroroldan iborat qo'riqxonaga. Payg'ambarorol uchastkasi vodiy-to'qay ekosistemalari va Buxoro bug'usi (Xongul)ni muhofaza qilish maqsadida 1971-yilda tashkil etilgan[2].

Hozirgi kunda qo'riqxonaga maqomi faqatgina Ko'hitang bo'limi hududida saqlanib qolgan bo'lib, Payg'ambarorol bo'limi hududi o'zbekiston Respublikasi Davlat chegaralarini qo'riqlash qo'mitasi ixtiyoriga berilgan. Surxon davlat qo'riqxonasining hududi hozirgi kunda Sherobod tumani hududiga to'g'ri keladi.

Surxon davlat qo'riqxonasining g'arbiy chegarasi o'zbekiston Respublikasi va Turkmaniston Respublikasining davlat chegarasiga to'g'ri keladi, sharqiy chegarasi Xatak, Xo'janqonota, Qizilolma, Shalqon, Kampirtepa, Sherjon va Vandob qishloqlari atrofidan o'tadi. Shimoliy chegarasi Ko'hitang va Boysun tizma tog'larini tabiiy ravishda ajratib turadigan Tangidevol darasidan oqib o'tuvchi Tangidevolsoy daryosining o'ng qirg'og'i bo'ylab o'tadi.

Ko'hitang davlat buyurtma qo'riqxonasi 1986-yilda Payg'ambarorol qo'riqxonasi bilan birlashtirilib, Surxon davlat qo'riqxonasiga aylantirildi. Surxon davlat qo'riqxonasi Ko'hitang tog' tizmasida joylashgan bo'lib, qo'riqxonaga tashkil qilunguncha bu joylar o'rmon xo'jaligi bo'lgan. Qo'riqxonaga tashkil etilgunicha

mo'rxo'rlar deyarli qirilib bitgan, Zarafshon archalari yoppasiga kesilgan edi. 1986-yilga kelib esa Surxon davlat qo'riqxonasi tashkil etilgan. Surxon davlat qo'riqxonasi tarkibiga kiruvchi Ko'hitang davlat buyurtma qo'riqxonasi dengiz sathidan 850-3157m yuqorida joylashgan bo'lib, Ko'hitang davlat qo'riqxonasida Turkiston va Zarafshon archalari (8033ga), Turkiston zarangi (104ga), turong'il (512ga), Buxoro bodomi (891ga), jiyda (183ga), shirin bodom, o'rik, yong'oq, xandon pista, saksavul, butalar va boshqalar o'sadi. o'simliklarning 810 turi mavjud, ularning 29 turi o'zbekiston "Qizil kitobi"ga kiritilgan [2].

Tog' yonbag'irlarida Turkiston silovsini, morxo'r, Osiyo mufloni, bo'ri, tulki, quyon, bo'rsiq, har xil zaharli ilonlar va qushlarning 130ga yaqin turi uchraydi.

Qo'riqxonaning Payg'ambarorol uchatkasi Amudaryodagi kichik orol-uzunligi 8 km, eni 5 km, umumiy maydoni 3044 gektar o'rmonzor va to'qayzorlardan iborat. Shundan 970 gektarni o'rmonzor, qolgan qismini jiyda, yulg'un va terak aralash to'qayzorlar tashkil etadi.

To'qayzorlarda Buxoro xonguli, yovvoyi tong'iz, qamish mushugi, qushlardan qirg'ovul, burgut, tasqara, qirg'iy, hind jayrasi, sudralib yuvchilardan cho'l agamasi, toshbaqalar, kaltakesaklar, ilonlar va boshqa ko'p hayvonlar uchraydi.

Surxon davlat qo'riqxonasining hozirgi kundagi vazifalari va ular bajaradigan funksiyalar quyidagilar qilib belgilangan:

-o'ziga xos ekologik tizimlarni o'z hududlaridagi tabiiy jarayonlar, o'simliklar, hayvonlarning genetik fondi, boshqa tabiiy obektlar va komplekslar, ya'ni majmualarni davlat etaloni sifatida tabiiy jarayonlarning tabiiy kechishiga aralashmasdan daxlsiz holatda asrab avaylashdan iborat;

-O'zbekiston Respublikasi hududidagi muhofaza etiadigan tabiiy hududlar tizimida biologik va landshaft xilma-xilligini ta'minlash, ekologik muvozanatni saqlashda ishtirok etish;

-o'z hududida barcha tabiiy obyektlar va majmualar, tabiiy jarayonlar va hodisalarni tabiiy sharoitida o'rganish;

-Qo'riqxonaning etalon ekotizmlaridagi bioxilma-xillik va tabiiy jarayonlarning tabiiy kechishi monitoringini olib boorish;

Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun qo'riqxonada quyidagi funksiyalarni bajaradi:

-muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimida (ekologik tarmoqda) o'zbekiston Respublikasi hududidagi xususan Sharqiy Ko'hitang tog'idagi biologik va landshaftlar xilma-xilligini ta'minlash, ekologik muvozanatni saqlab turish sohasidagi ishlar;

-qo'riqxonasidagi tabiiy obektlar va majmualarni muhofaza etish rejimini ta'minlaydi;

-ekologik- ma'rifiy faoliyatni amalga oshiradi.

-o'z hududida barcha tabiiy obyektlar va majmualar, tabiiy jarayonlar va hodisalarni tabiiy sharoitida o'rganish sohasidagi ishlarni bajaradi;

-ilmiy materialni to'playdi, qayta ishlaydi, tahlil qiladi va umumlashtiradi;

-ilmiy tadqiqotlar ishlarini, jumladan, mutaxassislarni shartnoma asosida jalb etgan holda amalga oshiradi;

-qo'riqxonada bioxilma-xilligi tog'risida ma'lumotlar bazasini yaratadi;

-tabiatni muhofaza qilish sohasida ilmiy kadrlar va mutaxassislarni tayyorlashga ko'maklashadi;

-monitoring ma'lumotlarini kameral qayta ishlaydi;

-mazkur tabiiy hududda joylashgan muhofaza etiladigan tabiiy hudud monitoringi haqida ma'lumotlari oladi, qayta ishlaydi va umumlashtiradi;

-ushbu ma'lumotlarni o'zbekiston Respublikasi ekologik va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga va yuqori tashkilotlarga qayta ishlangan va umumlashtirilgan holda taqdim etiladi;

-monitoring ma'lumotlari asosida tabiiy jarayonlar holati, hodisalar va prognozlar to'g'risida tabiiy hudud miqyosida ma'ruzalar tayyorlaydi.

Ko'hitang tizmasining geologik tuzilishi adabiyotlarda yetarlicha keltirilgan. Hududning geologik tuzilishida proterazoy erasi, kembriy ordovik, silur, devon, toshko'mir, perm, trias, yura, bo'r, paleogen neogen davr yotqizlari uchraydi.

Mazkur davrlarda hosil boʻlgan togʻ hosil boʻlish bosqichi va geologik jarayonlar davrida hosil boʻlgan foydali qazilma konlarini topish va ularni qazib olishning eng samarali yoʻllari konsepsiyalarini ishlab chiqish lozim.

Shuningdek ilm-fan ravnaqi va rivoji uchun yosh tadqiqotchi olimlar (botanika, zoologiya, geografiya, gidrologiya, geologiya, mineralogiya, iqlimshunoslik, gidrogeologiya, palentologiya kabi sohalar)ga qoʻriqxonahududida maxsus tajriba uchun sharoitlar yaratib berish kerak.

Qoʻriqxonahududida mavjud tabiiy landshaftlarni oʻz holicha saqlab qolish va ulardan foydalanishda kelajak avlod manfaatini koʻzlagan holatda tadbirlar amalga oshirish orqali hududni yanada rivojlantirish imkoni paydo boʻladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ballieva R., Turdimambetov I.R. "Tabiatdan foydalanishning geografik asoslari". Nukus - 2020. 291-b.
2. Rahimov A., Sobirov B., Qarshiyev H., Burxonov M. "Surxon davlat qoʻriqxonasi rivojlantirish yoʻllari" Toshkent-2016.
3. Oʻzbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan oʻsimliklar. Toshkent 2016 yil.
4. Kovalev S.A., Yefremov Yu.K., Komkov A.M., Kryuchkov V.G., Medvedkov Yu. V., Mirzaev E.M., Pokshishevskiy V.V., Saushkin Yu. G., Solnisev N.A., Yusov B.V. "Geografiya turizmi". Moskva-1973.
5. Sobirov U.A., Yesimov A.B., Nasirov M.D. "oʻzbekiston Respublikasining qoʻriqxonalariva tabiat boʻgʻlari". Toshkent-2010.
6. Komilova N.K., & AbdimoʻMinov T.A. (2023). THE GEOGRAPHICAL BASIS OF STUDYING MINERAL SPRINGS. Экономика и социум, (1-2 (104)), 62-65.
7. AbdimoʻMinov T.A., Bozorov S.O., & Rahmatov A.Yu. (2022). SUV OMBORLAR VA ULARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI (OQTEPA SUV OMBORI MISOLIDA). Экономика и социум, (12-1 (103)), 19-23.
8. AbdimoʻMinov, T. A. (2022). SURXONDARYO VILOYATI MINERAL BULOQLARINING SHIFOBAXSHLIK XUSUSIYATLARI. Academic research in educational sciences, 3(3), 810-814.
9. Kalonov, B. H., Latipov, N. F., & Sh, S. M. (2021). Environmental Problems In The Navoi Region Cotton Field. Мировая наука, (4 (49)), 15-18.
10. Latipov, N. F. (2021). Factors influencing the territorial distribution of the population. Экономика и социум, (9 (88)), 105-108.

11. Латипов, Н. Ф. (2017). Locality and factors affecting the population. *Наука и мир*, 1(11), 74-75.
12. Latipov, N. (2022). Urboecology-Interdisciplinary Synthesis of Geography and Ecology. *Middle European Scientific Bulletin*, 24, 16-20.
13. Komilova, N. K., & Latipov, N. F. (2022). Classification of settlements on the basis of the ecological situation in the Navoi region and the factors affecting the health of the population. *Visnyk of VN Karazin Kharkiv National University, series" Geology. Geography. Ecology"*,(56), 209213.
14. Latipov, N. (2022). Shaharlar va ularning ekologik muhit bilan bog'liqligi. *Scienceweb academic papers collection*.
15. Latipov, N. (2022). УРБОЭКОЛОГИЯ-ГЕОГРАФИЯ ВА ЭКОЛОГИЯНИНГ ФАНЛАРАРО СИНТЕЗИ. *Scienceweb academic papers collection*.
16. Комілова, Н., & Латіпов, Н. (2022). Класифікація населених пунктів регіону Навой на основі екологічної ситуації та факторів впливу на здоров'я населення. *Вісник Харківського національного університету імені ВН Каразіна, серія «Геологія. Географія. Екологія»*, (56), 209-213.
17. Faxriddin o'g'li, L. N., & Erkaboevich, E. H. (2022). The process of urbanization and its relation to the environment. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(3), 188-196.
18. Latipov N.F., & Komilova N.K. (2022). INDICATORS OF URBAN ENVIRONMENT ASSESSMENT AND CRITERIA FOR THEIR SELECTION. *Экономика и социум*, (11-1 (102)), 129-134.
19. Faxriddin o'g'li, L. N., Ulugbek, U. A. N. M., & Erkaboevich, E. H. THE PROCESS OF URBANIZATION AND ITS RELATION TO THE ENVIRONMENT.